

## O'ZBEKİSTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALİSHLARI

*Suyunov Shyerzod Sindarovich<sup>1</sup>*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola bugungi kundagi global darajadagi iqtisodiy muammolardan sanalgan oziq-ovqat-xavfsizligi va uning mamlakatimizdagi o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan. Shuningdek, maqlolada O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami amaliy taxlillar asosida ochib berilgan hamda tegishli xulosa va tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, oziqovqat sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash, chorvachilik mahsulotlari, agrosanoat kompleksi, ratsional iste'mol me'yorlari.

### Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashning garovi hisoblanadi. Yer yuzida iqlim o'zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerlarni sug'orish uchun suv tanqisligi, qurg'oqchilik kabi vaziyatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko'tarilib bormoqda.

Mamlakatimizda 2022-yil holatiga oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga aloqador 4 ta qonun, 138ta qaror (21 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, 80 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 27 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari hamda 10 ta O'zbekiston Respublikasi vazirlik va qo'mitalar qarorlari) amaliètga joriy etilgan va lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida joylashtirilgan. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30 avgustdag'i — «Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29 apreldagi «Aholini ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralar to'g'risida»gi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25 oktyabrdagi—O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga aholini asosiy turdag'i «oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risida» gi qonunlari aynan oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga xizmat qiluvchi qonunlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22 dekabrdagi №PQ-58 sonli — Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020-yil 16-dekabrdagi №PQ-4922 sonli—O'zbekiston Respublikasining BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020-yil 9-sentyabrdagi №PQ-4821 sonli — Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari ham mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zarurligini asoslab beradi.

Jahoning 54 mamlakatida oilalar moddiy ahvoli darajasining pasayishi kuzatilgani, 20 dan ziyod davlat aholisining asosiy qismi ochlikdan qiynalayotgani, 12ta mamlakatda aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqargani, so'ngi yillarda dunyo aholisining 840 milliondan ortig'i ochlikdan aziyat chekayotganligi buning yaqqol dalilidir[1]. Shuning uchun ham butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga juda katta ahamiyat beriladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti Magistratura Tinglovchisi



Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi muhim o'rinni tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qilgan nutqida "Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi"[2],-deb ta'kidlagan.

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab oziq-ovqat xavfsizligi masalalari O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida markaziy o'rinnlardan birida turadi. Endilikda aholi turmush farovonligini va sifatini yanada oshirish, aholini oziq-ovqat bilan to'laqonli ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, O'zbekistonda oziq ovqat dasturini amalga oshirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarin va ustuvor yo'nalişlarini ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zarurati mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab berdi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida oziq-ovqat xavfsizligining nazariy va amaliy masalalarini hal qilish hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi, insoniyatning turmush farovonlikdagi rolini asoslashga turli MDH iqtisodchi olimlaridan D.V.Zerakalov tomonidan "Oziq-ovqat xavfsizligi" monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari jahon tarixiy jarayonlarida ko'plab amaliy taxlillar keltiriladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga kelishi hamda bu global iqtisodiy muammo aylanishi haqida ko'plab rasmiy statistik materiallar taxlili olib boriladi[3]. Yana bir iqtisodchi olim L.Revenko o'zining "Oziq-ovqat xavfsizligi: yechimini topish imkoniy mavjud" rasmiy maqolasida jahon sahnasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosan tashqi oqimlar ya'ni mamlakatlar ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatiga bog'liq holda taqsimlash masalasini ko'tarib chiqadi[4].

O'zbekistonda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim tomonlari umumiy tarzda H.P.Abulqosimovning "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi" o'quv qo'llanmasida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi umumiy tarzda o'rganilgan bo'lsa yana bir iqtisodchi olimlarimizdan N.X.Ergashev O'zbekistonda oziqovqat xavfsizligini ta'minlashda sug'urtaning ahamiyatini ko'rsatib beradi[5].

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov, A.O'lmasov, T.Jo'rayev, D.Tojiboyevalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ularning o'quv qo'llanma va dasrliklarida ayrim qirralari o'rganilgan. Ta'kidlash lozimki, xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko'p yillik rasmiy nashlardan foydalangan bo'lsada, lekin milliy iqtisodiyot doirasida barataraf etish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar berilmagan. O'rganilgan tadqiqotlarda asosan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global iqtisodiy xavfsizlikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qarab chiqilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo'lib, aniq ustuvor vazifalar belgilab olingan. Maqolani yozishda tahlil va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanib, muammoni ochib berishga harakat qilingan hamda O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda yetakchi tarmoqlardan sanalgan qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar amaliy taxlili yoritilgan. Tadqiqot uchun zarur axborotlar asosan xorijiy adabiyotlar, statistik va me'yoriy-huquqiy ma'lumotlar bazasidan olingan.

### **Tahlil va natijalar**

Mamlakat aholisining ko'payib borayotgani, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida qishloq xo'jaligi ekini maydonlarining qisqarib borishi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini kengaytirish masalasini yildanyilga keskin qilib qo'ymoqda. AQShning izlanishlar markazi o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi reytingida dunyoda 64-o'rinni egalladi[6].

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari 1990 yildagi 28080,4 ming hektardan 2015 yilda 25621,6 ming hektarga, ya'ni -2458,8 ming hektarga, shunga mos ravishda



haydaladigan yer maydonlari 4176,5 ming gektardan 4043,6 ming gektarga, ya'ni -132,9 ming gektarga, sug'oriladigan yerlar 3407,3 ming gektardan 3288,2 ming gektarga, ya'ni - 119,1 ming gektarga, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari esa 4200,1 ming gektardan 3694,2 ming gektarga, ya'ni -505,9 ming gektarga qisqardi[6].

Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning dolzarb ahamiyatga molik ekanligidan dalolat beradi. Keyinga yillarda xalq iste'mol tovarlarini tamg'alashda shtrixli kodlashga katta e'tibor berilmoqda. Ana shu kodlar orqali ham mahsulot haqida atroficha ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi. Buni misolida oilalar, ma'lum bir jamoatchilik guruhlari va mamlakatlar o'zini-o'zi ta'minlashga intilishlari sababli, muntazam ravishda oziq-ovqat mahsulotlari zahirasi saqlanishini va keyingi yig'im-terim mavsumiga qadar iste'mol qilib kelinganligi barchamizga ma'lum.

Aytish lozimki, Sobiq Ittifoq tanazzulga uchragan o'sha davrda, ya'ni 1989 yilda o'tkazilgan statistik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, iste'mol bozorida aholi uchun zarur bo'lган barcha mahsulotlarning qariyb 95 foizi bo'yicha uzilishlar bo'lib turgan va bu sobiq Ittifoq hududida kundalik asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini aholiga kartochkalar orqali sotish tizimini joriy etishga sabab bo'lган edi. 1989 yilda respublika statistika organlari tomonidan yurtimiz aholisi o'rtasida o'tkazilgan rasmiy so'rovlarda qatnashganlarning 89,3 foizi go'sht mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmayotganini aytgan.

Bu ko'rsatkichlar sut mahsulotlari bo'yicha 56,5 foizni, shakar bo'yicha 55,3 foizni, qandolat mahsulotlari bo'yicha 49,5 foizni, qartoshka bo'yicha esa 17,5 foizni tashkil etdi[7]. Ushbu raqamlar mustaqillik ostonasida respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligiga kuchli tahdidlar mavjud bo'lганligini, respublika oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zi qodir bo'lmay qolganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hayot-mamot masalasiga aylandi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tub agrar islohotlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari strukturasini yo'naltirilgan strategiya amalga oshirildi. Shu jumladan, mamlakatimizda don mustaqilligini qo'lga kiritishga qaratilgan Dasturining amalga oshirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etdi.

Oziq-ovqat va gumanitar xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda uning ishtirok etish darajasi davlatning iqtisodiy potentsiali mustahkamligiga bog'liq.<sup>2</sup>

## 1-Jadval

### Oziq-ovqat xavfsizligining terminologik bazasi<sup>3</sup>

Oziq-ovqat xavfsizligining terminologik bazasi		
Nº	Muallif	Ta'rif
1	FAO - Food and Agricultural Organization	Oziq-ovqat xavfsizligi - bu barcha odamlar har doim faol, sog'lom hayotni saqlab qolish uchun xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lган davlat
2	Balabanov B.C	Oziq-ovqat xavfsizligi iqtisodiy muvozanatning ajralmas qismi va har qanday davlatning milliy xavfsizligining asosiy vektori

<sup>2</sup> Тихомирова В.А. / Продовольственная безопасность: сущность понятия // Вестник Российской экономического университета им. В.Г.Плеханова. - 2015. - № 6(84). - С. 127.

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiyilgan



3	Altuxovu A.I.	Oziq-ovqat xavfsizligi aholining barcha segmentlarini tashqi va ichki vaziyatdan qat'i nazar, oziq-ovqat mahsulotlarining zarur sifati va miqdoriga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlamoqda
4	Xromov Yu.S.	Oziq-ovqat xavfsizligi, ya'ni umumiy aholi uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi bilan oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida barqarorlikning ishonchli saqlanishi millatlar hamjamiyati va birinchi navbatda, bir qator ta'sirli davlatlararo va nodavlat tashkilotlarning bevosita maqsadiga aylandi
5	L.S. Revenko	Iqtisodiy xavfsizlik biz o'rganayotgan muammoni bartaraf etishning asosiy asosi bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligining siyosiy, gumanitar va ijtimoiy o'lchamlariga ham e'tibor qaratish lozimligini qo'shimcha qildi

Oziq-ovqat muammosining o'zi zamonaviylik mahsuli emas, butun dunyo bo'ylab odamlar doimo ochlik va besoqolbozlikka duch kelgan. Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi tushunchani kengaytirish uchun o'rganilayotgan tushunchaning mohiyatini tushunishga yanada aniqroq va yetarli darajada yondashish zarur. Shu maqsadda, bizning fikrimizcha, jahon tarixida oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tushunchalari evolyutsiyasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ko'rindi. Mamlakatimizda yiliga 20 million tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. So'nggi yillarda esa 800 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash sig'imiga ega bo'ldik. Biroq bu endilikda ehtiyojimiz uchun kam. Demak, bu mamlakat iqtisodiy xavfsizligi muhim tarkibiy qismi hisoblangan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni tizimli o'rganish va takomillashtirish yuzasidan nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozimligini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini hal qilishda qator qiyinchiliklar borligiga qaramay, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ham miqdor, ham sifat jihatdan muntazam oshirib borish va shu orqali oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash borasida salmoqli natijalar qo'lg'a kiritilayotganini ham aytish zarur. Hususan, 2023 yilda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish maqsadida 4 mln. hektar asosiy, bog'-tok qator oralari, lalmi va takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish belgilangan. Ushbu maydonlardan 8,1 mln. tonna boshqoli don, 528 ming tonna sholi, 579 ming tonna dukkakli, 345 ming tonna moyli, 12,2 mln. tonna sabzavot, 2,5 mln. tonna poliz, 4,1 mln. tonna kartoshka, 3,1 mln. tonna meva va 2 mln. tonna uzum yetishtirilishi kutilmoqda. Shuningdek, xududlarda dala chetlariga 71 mingta fermer xo'jaliklari tomonidan jami 59 ming hektar tut, tok, terak, mevali ko'chatlar hamda 24 ming hektar poliz, sabzavot va boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish ishlari yakunlandi. Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha yil yakuniga qadar tizimli ishlar natijasida qoramollar sonini 14,4 mln. boshga, qo'y-echkilarni 24,3 mln. boshga yetkazib, 2,9 mln. tonna go'sht, 12,2 mln. tonna sut, 9 mlrd. dona tuxum, 650 ming tonna baliq va 31 ming tonna asal ishlab chiqarish mo'ljallanmoqda.

Respublikada oziq-ovqat sanoatida 22 mingdan ortiq turli mulkchilik shaklidagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan 2023 yilda jami 75,5 trln. so'mlik oziq-ovqat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shularga mos ravishda joriy yilning yanvar-may oylarida qiymati 10 mlrd. so'm, quvvati 1,5 ming tonna bo'lgan bitta zamonaviy agrologistika markazi foydalanishga topshirildi. Ayni chog'da qiymati 23,9 mlrd. so'm, quvvati 14,5 ming tonna bo'lgan 22 ta sovutgichli omborxona ish boshladi. Natijada agrologistika



markazlari 67 taga, quvvatlari 901 ming tonnaga, shuningdek, sovutgichli omborxonalar 1820 taga va quvvatlari 1 mln. 196 ming tonnaga yetkazildi. Muhimi, bu borada ishlar davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash barobarida, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlar oziq-ovqat ta’minotiga salmoqli hissa qo‘sib kelayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan muntazam e’tirof etilayotir. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida “Ming yillik rivojlanish maqsadlari”ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo‘lgan dunyodagi 14 ta davlat orasida O‘zbekiston ham borligi e’tiborga molik. Xalqaro oziq-ovqat siyosati ilmiy-tadqiqot instituti hisobotlarida ham O‘zbekistonda keyingi yillarda bu borada e’tirofga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Ko‘rinib turibdiki, bu yo‘nalishda mamlakatimizda aholini sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar ro‘yobga chiqarilmoqda. Ayni chog‘da muayyan muammolar saqlanib qolayotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Xo‘sh, ushbu muammolarni qanday hal etish mumkin?

#### Buning uchun quyidagi tadbirlarni bajarish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- \* *hududlarda belgilangan maqsadli mezonlar bajarilishini ta’minlovchi agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashni tartibga solish va boshqarish tizimini joriy qilish;*
- \* *oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash, baholash va kutilishi mumkin bo‘lgan xayfni oldindan bilish tizimini yo‘lga qo‘yish;*
- \* *qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslashga yo‘naltirilgan korxonalar tarmog‘ini kengaytirish;*
- \* *meva-sabzavot mahsulotlarini saqlashga ixtisoslashgan sovutish kameralari, ularni saralash va qadoqlash punktlari hamda tashish bilan shug‘ullanuvchi maxsus transport-kommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish;*
- \* *qayta ishslash sanoatining material va energiya sig‘imini pasaytirish, resurs tejovchi texnologiyalarga ustuvorlik berish;*
- \* *qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish;*
- \* *asosiy turdagи qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyoni ichki ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish;*
- \* *chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish xajmini ko‘paytirish, ozuqa bazasini mustahkamlash;*
- \* *qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash;*
- \* *oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash;*
- \* *aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi uchun ular iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish;*
- \* *meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o‘zida qayta ishslash bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqarish majmualari, xoldinglar, klaster va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari faoliyatini kengaytirish;*
- \* *qishloq joylarda meva-sabzavot va uzumni qayta ishlovchi korxonalari uchun zarur bo‘lgan infratuzilmalar, birinchi navbatda, yo‘llar, gaz, elektr, suv ta’minoti va boshqa injenerlik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzlusiz ta’minlashni yo‘lga qo‘yish va boshqalar.*

O‘ylaymizki, ushbu vazifalar muvaffaqiyatlari bajarilgach, natijalar yanada salmoqli bo‘ladi. Muhimi, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligi kafolatlanadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.//Xalq so‘zi, 2022-yil 15 dekabr.

2. Jonixonov M., Rahmonov S. Oziq-ovqat dasturi: mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiyot barqarorligi va farovonlikning mustahkam asosi.//Xalq so‘zi, 2020 yil 7iyun.

3. Zerkalov D.V. Prodovolstvennaya bezopasnost [Elektronniy resurs]: Monografiya / D. V. Zerkalov. – Elektron. dannye. – K. : Osnova, 2019.

4. Liliya Revenko. Prodovolstvennaya bezopasnost: resheniye vozmojno.  
[https://mgimo.ru/files/226753/2012-09\\_interaffairs\\_Revenko.pdf](https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs_Revenko.pdf).

5. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma.- T.:Akademiya, 2012.- 12-bet; Ergashev X.N. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sug‘urtaning ahamiyati. //“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oziq-ovqat zahiralarini oshirishdagi o‘rni va roli: muammo va imkoniyatlar” mavzusidagi Oliy ta’lim muassasalariaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va ma’ruzalar to‘plami. 2018 yil 19 may.-T.,2018. - 257-bet.

6. <https://daryo.uz/k/2018/04/30/ozbekiston-oziq-ovqat-xavfsizligi-reytingidadunyoda-64-orinni-egalladi>O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi reytingida dunyoda 64- o‘rinni egalladi

7. O‘zbekiston respublikasi yillik statistik to‘plam. — Toshkent: «Uzbekistan» 2018. — 45-bet; Statisticheskiy yejegodnik Respubliki Uzbekistan. — Tashkent, 2013. — S.226, 246–248; O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 2018 yil statistik to‘plam. —T., 2017.-23-bet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan..

8. O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami.-T.,2013.227-bet; O‘zbekiston hududlarining yillik statistik to‘plami.-T.,2014.87-88-betlar; Sotsialno-ekonomiceskoye polojeniye Respubliki Uzbekistan za 2017 god.-T., 2018.- S.51,54-55 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

9. O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari//stat/uz

10. Sottiqulova G.A. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning hozirgi holati va uni mustahkamlash yo‘nalishlari//”Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oziq-ovqat zahiralarini oshirishdagi o‘rni va roli: muammo va imkoniyatlar” Oliy ta’lim muassasalariaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va ma’ruzalar to‘plami (2018 yil 19 may)-T.: “IMPRYeSS MYeDIA”, 2018.-197-198-betlar;[sisupr.mrsu.ru/2010-4-ARK/PDF/Makushkin.pdf](http://news.21.sisupr.mrsu.ru/2010-4-ARK/PDF/Makushkin.pdf), <http://news.21.sisupr.mrsu.ru/2010-4-ARK/PDF/Makushkin.pdf> By/other-news/2011/11/17/410324.html.,<http://www.gnicpm.ru/UserFiles/norma-2020-diet.pdf>,[journals.kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrmc.pdf](http://journals.kantiana.ru/upload/iblock/43f/jpynldkqtzbyrmc.pdf) asosida tuzilgan.

11. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” 2017.PF-4947-son.

12. R.Normaxmatov oziq-ovqat mahsulotlari sifat ekspertizasi xizmatini tashkil etish darsligi – 2020 yil. 131-132 bet.

13. Chupryakova A.G., Kosinskiy P.D. Prodovolstvennoe obespechenie naseleniya promo‘shlennoego regiona: problemo‘ i perspektivo‘ G‘G‘ Mejdunarodno‘y jurnal pri-kladno‘x i fundamentalno‘x issledovaniy. - 2016. - № 12-1. - s. 109-113.

14. Bondareva G.S. Prodovolstvennoe obespechenie naseleniya: ponyatie, suhnost i struktura G‘G‘ Vestnik Kemerovskogo gosudarstvennogo universiteta. - 2018. - № 3-1 (55). - s. 235-238.

15. U.Azamjonovning “Oziq-ovqat ta’mnoti va xavfsizligining nazariy asoslari” maqolasi.

16. <https://G‘G‘presmarymethuen.orgG‘uzG‘dictionaryG‘>

17. <http://G‘G‘www.uza.uz> Agrar Siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi

